

8. Krueger, R. *International Standards for Impairment and Provisions and Their Implications for Financial Soundness Indicators (FSIs); International Monetary Fund: Washington, DC, USA, 2002.*

9. Peterson K.Ozili, 2019, *Non-performing loans and financial development: New evidence, The Journal of risk finance.*

10. Souza, G.J.D.G. and Feijo, C.A. (2011), “Credit risk and macroeconomic interactions: empirical evidence from the Brazilian banking system”, *Modern Economy*, Vol. 2 No. 5, pp. 910-929, doi: 10.4236/me.2011.25102.

11. Tecles, P. L., & Tabak, B. M. (2010), “Determinants of bank efficiency: The case of Brazil”, *European Journal of Operational Research*, Vol. 207 No.3, pp. 1587-1598.

12. *The World Bank (2022), Uzbekistan financial sector reform project, Finance, Competitiveness and Innovation Global Practice Europe And Central Asia Region.*

13. <https://cbu.uz/>

## **MINTAQALARDA INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI**

***Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna***

*Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,*

*Ma'mun NTM o'qituvchisi*

Ma'lumki, mexanizm deganda har qanday faoliyat turini belgilaydigan tizim va qurilma tushuniladi. Iqtisodiy mexanizm iqtisodiy qonunlar va takror ishlab chiqarish jarayonlari amalga oshiriladigan jarayonlar, tashkiliy tuzilmalar, boshqaruv shakllari va usullari, shuningdek huquqiy normalar to'plamidir [1]. Iqtisodiy mexanizm iqtisodiyot tarmoqlarini o'z ichiga oladigan sohalardan iborat bo'ladi. Iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'ladi [2]:

- ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari (mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, uni joylashtirish va boshqalar). Ularni takomillashtirish jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga ta'sir qilib, ulardan foydalanish samaradorligini oshiradi;

- iqtisodiyotda amalga oshiriladigan iqtisodiy aloqalar shakllari, jumladan. ishlab chiqarish vositalarining aylanishi, moliyaviy-kredit munosabatlari va boshqalar;

- rejalashtirish va boshqarish shakllari va usullari (iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-psixologik va boshqalar);

- iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish va rag'batlantirish amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xo'jalik yurituvchi subyektlarga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy vositalar va ta'sirlar to'plami.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm - o'zaro bog'liq unsurlar tizimidan foydalangan holda uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun obyektga boshqaruv subyektining ta'siri qoidalari, kirish va chiqish parametrlarini o'zgartirish va chiqarish qoidalari, shuningdek qo'llaniladigan funksiyalar, usullar va vositalar, texnologiyalar va amaliyotlardan foydalanish tamoyillari majmuasidir. Ushbu

mexanizm mintaqalar, korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda qo‘llaniladi. Korxonalar faoliyatidagi dolzarb muammolarni uning barqaror rivojlanishini samarali boshqarish mexanizmini yaratmasdan turib hal qilib bo‘lmaydi, jumladan, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, shuningdek ijtimoiy va ekologik ko‘rsatkichlar: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va resurslarni tejash, mehnatni muhofaza qilish, ilg‘or texnologiyalar va innovatsion faoliyat shular jumlasidandir [3]. Mexanizm uchun zarur omil sifatida investitsiya strategiyasi investitsiya loyihasi uchun hujjatlar to‘plamini tayyorlash, loyihani xavfsizligi, tasdiqlovchi hujjatlarni shakllantirish va ustuvorlik ko‘rsatkichlarida uzoq muddatli maqsadlarga mos keladigan strategiyani tanlash va uning samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi.

Investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish investitsiya orqali iqtisodiy faoliyat natijalarini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Mazkur strategiyalar zarur daromad olish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aktivlarni ko‘paytirish uchun investitsiya depozitlarining yo‘nalishini belgilaydi. Shunga muvofiq, mintaqalarda investitsion muhitni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari investitsiya faoliyatini boshqarish orqali yaratiladi. Bu orqali korxonaning samaradorligini oshirish va uning faoliyatini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va bozor qiymatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy va moliyaviy strategiyani amalga oshirish ta‘minlanadi.


Fikrimizcha, investitsiyalarni boshqarish - korxonaning investitsiya faoliyati jihatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari va usullari tizimidir. Investitsiya faoliyatini boshqarishga quyidagi keltirilgan omillar ta‘sir qiladi:

- korxonaning sof foydasi miqdorining oshishi. Korxonaning samarali investitsiya faoliyatining asosiy natijasi bo‘lib, sof foyda miqdorining oshishi bilan uning iqtisodiy faoliyati ta‘siri seziladi. Haqiqiy investitsiya jarayonida ushbu ta‘sirga korxonaning mahsulotlarini sotishdan olingan operatsion foydasining o‘shishi hisobiga erishiladi.

- korxonaning kapital daromadlari. Sof foyda o‘shishining investitsiya omillari tufayli korxonaning dividend siyosatini o‘zgartirmasdan uning katta miqdorini kapitallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa korxonaning sof aktivlarining ichki zaxiralari hisobiga o‘shishini ta‘minlaydi hamda uning bozor qiymatini oshiradi.

- korxonaning imidjini oshirish. Faol investitsiya faoliyati korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida g‘oyasini shakllantiradi. Bu orqali tijorat aloqalari doirasi kengayadi va moliyaviy moslashuvchanlikni shakllantiriladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizm zarur bo‘ladi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm investitsiya loyihasining amalga oshirilishi va uni ishtirokchisi manfaatlarini hisobga olish imkoniyatini ta‘minlash uchun loyiha materiallarida qayd etilgan loyiha ishtirokchilari ta‘sirining shakli bo‘lib, ular turli guruhlardan iborat bo‘ladi (1-rasm).



**1-rasm. Investitsiya loyihasini amalga oshirishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning tarkibi<sup>60</sup>**

Ushbu rasimga ko‘ra, loyihani amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanish zarurati birinchi navbatda uning tijorat samaradorligini baholashda yuzaga keladi. Bundan tashqari, loyiha ishtirokchilari uchun ushbu mexanizmning xarajatlari va daromadlariga ta‘sir ko‘rsatadigan unsurlari muhim qism bo‘lib qaraladi.

Fikrimizcha, mintaqalarda investitsion muhitni shakllantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar quyidagi qism va yo‘nalishlarga ajratiladi:

- iqtisodiy (moliyaviy, marketing va ishlab chiqarish) - mintaqalarning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirish;
- ijtimoiy - mintaqada mehnat resurslarining ehtiyojlarini qondirish va motivatsiyasini oshirish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash;
- ekologik - mintaqalardagi resurslarni oqilona tejash va ishlab chiqarish jarayonining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish;

<sup>60</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.

- institutsional - institutsional muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish (mintaqalardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini amalga oshirish va boshqalar).

Shuningdek, investitsiya faoliyatini boshqarish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- kelgusi davr uchun korxonaning samarali va muvozanatli investitsiya dasturini shakllantirish;

- investitsiya faoliyatining prognoz qilinadigan hajmlariga muvofiq investitsiya resurslarining yetarli hajmini shakllantirishni ta‘minlash;

- korxonaning amaldagi investitsiya dasturini amalga oshirishni tezlashtirish;

- investitsiya faoliyati jarayonida korxonaning moliyaviy muvozanatini ta‘minlash.

Hamda mintaqalarda investitsiya faoliyati qiymatini nazorat qilishda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- an‘anaviy usul. Bu haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar o‘rtasidagi farq bo‘lib xizmat qiladi.

- o‘zlashtirilgan hajm usuli. Bu haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan davrlar bo‘yicha rejalashtirilgan taqsimot bilan taqqoslanganda va bajarilgan ishlar hajmi tekshirilganda amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, investitsiya loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi quyidagi unsurlarni o‘z ichiga oladi:

- qabul qilingan bir qator normativ hujjatlar va ularning mazmuni;

- ishtirokchilarning o‘zaro ta‘siri;

- ishtirokchilar tomonidan loyihani amalga oshirish bo‘yicha birgalikdagi harakatlarni amalga oshirish munosabati bilan qabul qilingan majburiyatlarni va kafolatlar;

- belgilangan majburiyatlarni bajarmaganlik va ularni buzganlik uchun sanksiyalar;

- investitsiyalarni moliyalashtirish shartlari, xususan kredit shartnomalari shartlari (kredit shartlari, foiz stavkasi, foizlarni to‘lash davriyligi va boshqalar);

- ishtirokchilar o‘rtasidagi mahsulot va resurslar aylanmasining maxsus shartlari (barter almashinuvidan foydalanish, o‘zaro hisob-kitoblar uchun imtiyozli narxlar, tovar kreditlari berish, asosiy vositalarni doimiy yoki vaqtincha foydalanishga bepul o‘tkazish va boshqalar);

- loyihani amalga oshirishni boshqarish tizimi (loyihani amalga oshirish shartlaridagi o‘zgarishlar) individual ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ular manfaatlarini himoya qilish va loyihani muvaffaqiyatli yakunlash uchun keyingi harakatlarini o‘z vaqtida tuzatish;

- o‘zaro moliyaviy, tashkiliy va boshqa qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari (vaqtinchalik moliyaviy yordam, ssudalar, to‘lovlarni kechiktirish va u bilan ta‘minlash), jumladan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari;

- har bir ishtirokchi korxonaning mamlakat hududida loyihada ishtirok etishdan daromad oladigan xorijiy ishtirokchi firmalarning buxgalteriya siyosatining asosiy xususiyatlari.

Loyihani amalga oshirish bosqichida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning ayrim unsurlari ustav hujjatlari va ishtirokchilar o‘rtasidagi shartnomalarda aniq belgilanadi.

Investitsiya loyihasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini bilish quyidagi sabablarga ko‘ra zarur bo‘ladi.

birinchidan, loyihani amalga oshirishni ishonchsizligi;

ikkinchidan, ishtirokchining buxgalteriya siyosati va uning boshqa subyektlar bilan munosabatlari shartlarini bilmasdan, ish natijalari va investitsiya loyihasining rentabelligini belgilaydigan xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniqlash mumkin emasligi.

Mintaqalarda investitsion muhitni shakllantirish borasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari qatoriga investitsiya loyihasining biznes-rejasini kiritish mumkin. Odatda, biznes-reja loyihani amalga oshirish barcha ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Biznes-rejani ishlab chiqish jarayonida loyihasining daromad qismi (mahsulotlar, narxlar, bozor va sotish), so‘ngra xarajatlar (uskunalar, xom ashyo, materiallar va ish haqi sotib olish xarajatlari) shakllantiriladi. Shu bilan birga, biznesni tashkiliy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish variantlari hisobga olinadi, shundan so‘ng ular samaradorlikni hisoblash va uni tahlil qilishga o‘tadilar.

Biznes-rejani ishlab chiqishda quyidagi shartlarga e‘tibor beriladi:

- biznes-reja foydalanish uchun professional, arzon va tushunarli bo‘lishi;
- biznes-reja boblar va bo‘limlarga bo‘linishi, undagi ma‘lumotni to‘liq idrok etish uchun jadvallar, diagrammalar va grafiklardan foydalanish;
- biznes-reja obyektiv bo‘lishi, ya‘ni buxgalter va auditor tomonidan moliyaviy hisob-kitoblar diqqat bilan tekshirishlari;
- biznes-rejaning tarqalishini nazorat qilish, u maxfiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Biznesni rejalashtirishda biznes-rejani monitoring qilish muhim o‘rin tutadi. Bu yerda monitoring qilib investitsiya loyihasini amalga oshirishning haqiqiy ko‘rsatkichlarining ularning prognoz qiymatlaridan o‘zgarishlarini aniqlash va ugi investitsiya loyihasining amalga oshirilishi va samaradorligiga ta‘sirini baholash jarayoni bo‘lib tan olinadi. Monitoringni maqsadi har bir davrda investitsiya loyihasining amalga oshirilishi va samaradorligi shartlari bajarilishi yoki yo‘qligini aniq belgilanishidir. Monitoring natijalariga ko‘ra, investitsiya loyihasini amalga oshirish rejasiga tuzatishlar kiritish zarurligi to‘g‘risida xulosa chiqarish yoki loyihani tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish mumkin. Monitoring loyihasining investitsiya bosqichidan boshlanib, butun operatsion bosqichdan o‘tadi va loyiha tugagandan so‘ng to‘xtaydi. Ushbu loyihani amalga oshirishning ish vaqti, xarajatlar, xatarlar, sifat va boshqalar kabi jihatlariga taalluqli bo‘ladi. Monitoringning yakuniy bosqichi chuqurlashgan monitoring, ya‘ni loyihani va

uning operatsion bosqich oxirida samaradorligini baholash, chiqishda loyihaning prognoz va haqiqiy ko‘rsatkichlarini taqqoslash bo‘lib hisoblanadi. Bunday baholash individual investitsiya loyihalari va butun investitsiya dasturlari uchun muhim masala bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa shuki, mintaqalarda investitsion muhitni shakllantirish uchun uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish lozim. Ushbu mexanizmlardan biri investitsiya strategiyasini shakllantirish bo‘lib, bu investitsiya loyihalarining o‘zgarmas parametrlarini birlashtirish orqali biznesning strategik uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun moliyaviy tadbirlar tizimini shakllantirish bo‘lib hisoblanadi. Unga asosan, hududiy subyektning resurslari hisobidan investitsiya muhitini shakllantirish va uning asosini rivojlantirishga imkon beradi. Shunga ko‘ra, u hududiy (davlat yoki mahalliy) boshqaruv organi tomonidan investitsion tuzilmalarni boshqarish uchun resurslarni taqdim etadi. Bu esa hududiy subyektini rivojlantirish maqsadida mintaqalarda investitsion faoliyatni tartibga solish va takomillashtirishni belgilaydi. Bunda investitsiya loyihasini amalga oshirishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tarkibini va biznes-rejani ishlab chiqishni hisobga olish zarur. Shu orqali biznes-rejani monitoring qilib borish ham lozim bo‘ladi. Ushbu tuzilmalarini rivojlantirish esa bevosita tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni mohiyatini belgilaydi.

***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: Инфра-М, 2011. – 512 с.

2. Шишкин Д.Г. Сущность организационно-экономического механизма развития предпринимательских структур. // Российское предпринимательство, 2013. Том14. №2. - с. 27-33.

3. Коваленко И.И., Соколицын А.С. Организационно-экономический механизм управления устойчивым развитием предприятия с учетом производственного риска. // Научно-технические ведомости СПбГПУ. Экономические науки, Том12, №6, 2019. - с.176.

**MOLIYA BOZORIDA BANK XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI  
OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

***Sh.Madramov***

*Bank –moliya akademiyasi magistranti*

Mamlakatimiz qonunlariga asosan , bank - bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul-mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradigan tashkilot hisoblanadi.Tijorat bankalarining faoliyatini korxonalar faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatini o'z asoschilari-aksionerlarning manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat.